

## ALISHER NAVOIY “ARBAIN” ASARINING FALSAFIY TAHLILI

*Ochilova Maftuna Shuxratovna, Navoiy innovatsiyalar universiteti  
o‘qituvchisi*

## A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ALISHER NAVOI’S WORK “ARBAIN”

*Ochilova Maftuna Shuxratovna, Lecturer of Navoi University of  
innovation*

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОИ “АРБАИН”

*Очилова Мафтуна Шухратовна, преподаватель Навоийского  
инновационного университета*



*https://orcid.org/ 0009-  
0005-8596-2595  
e-mail: kdirbaev-  
95@mail.ru*

**Annonatsiya:** ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Arbain” asarida keltirilgan hadislarning mazmun-mohiyati, ularda ilgari surilgan g‘oyalarning jamiyat hayotiga ta’siri falsafiy tahlil etilgan. Shuningdek, hadis ilmi haqida nazariy ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** hadis, arbain janri, din, axloq, xotima, komillik, ruboiy, islom falsafasi.

**Annotation:** this article philosophically analyzes the essence of the hadiths presented in Alisher Navoi's work "Arbain", and the influence of the ideas put forward in them on the life of the society. Theoretical information about hadith science is also given.

**Key words:** hadith, arbain genre, religion, ethics, khatima, perfection, rubai, Islamic philosophy.

**Аннотация:** В данной статье философски анализируется сущность хадисов, представленных в произведении Алишера Навои «Арбаин», и влияние выдвигаемых в них идей на жизнь общества. Также даются теоретические сведения о хадисоведении.

**Ключевые слова:** хадис, жанр арбаин, религия, этика, хатима, совершенство, рубай, исламская философия.

**KIRISH.** Ma’lumki musulmon xalqi islom dini arkonlari asosida hayot kechirishi zarur. Diniy kitoblar mutolaasi ularda ilgari surilgan g‘oyalar mazmun-mohiyatini anglash ijtimoiy hayot tarzimizni yanada yaxshilaydi. Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy hazratlarini tilga olar ekanmiz, u kishining avvalo islom mutafakkiri ekanlarini ta’kidlash joiz. Hazrat Navoiyning ijodlari bilan tanishgan, asarlarini xolis o‘rgangan har qanday bilimli odamning ushbu xulosaga kelishi aniq. Alisher Navoiyning diniy-ma’rifat va tasavvuf aqidalari bilan sug‘orilgan asarlarini qisqartirilmagan, chegaralanmagan holda to‘laligicha, xolis o‘rganish va o‘rgatish borasida jiddiy yutuqlarga erishilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Alisher Navoiyning tarbiyaviy manba bo‘lgan hadislar sharhiga bag‘ishlangan “Arba’in” asari asrlar mobaynida ana shunday qimmatli manbalardan biri bo‘lib kelmoqda. Navoiyning hadislar to‘plamida keltirilgan axloqiy-tarbiyaviy jihatlar, hamda inson ma’naviyati, odobi, ma’rifatining shakllanishida tutgan o‘rni xususida so‘z yuritilgan. Arbain so‘zining ma’nolari turlicha. 1. Qirq kun, chilla; qirq kun xilvatda ibodat qilish. 2. Qirq hadis [1,127-128]. Arbain uslubida asar yaratish islom olamida yaxshi bir an’anaga aylangan. Bunga Nabiy sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadislari asos bo‘ladi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Kim

ummatimga din ishlari borasida qirqta hadisni muhofaza qilib bersa, Alloh uni Qiyomat kuni faqih qilib tiriltiradi va Qiyomat kuni men unga shafloatchi va guvoh bo'laman". Mazkur hadisni sharifda aytilgan va'dadan umid qilib, musulmon shoirlar ham she'riy uslubda "Arba'in"lar yozishgan. Bu haqda I.Fozilov o'zining "Alisher Navoiy asarlari lug'ati"da alohida ta'kidlaydilar.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Rasulullohning aytgan har bir so'zini hayotiy qoidaga aylantirish har bir mo'minning oldiga qo'yilgan asosiy maqsadiga aylanib, islom olamida eng zarur kundalik hayotda yetakchi o'rin egallovchi 40 hadisni olib uning inson hayotiga o'zgacha ta'siri haqida kitob yozgan Imom G'azzoliy singari buyuk bobokalonlarimiz xizmatlari beqiyos. Albatta, bu ulkan xizmatlar musulmon xalqlari hayotiga kuchli ta'sir o'tkazgani aniq. Allohning roziligiga, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. ning shafloatiga erishish har bir musulmonning orzusi ekanligini hisobga olsak, hadislarning insonlar qalbiga jo bo'lishi uchun jamiyatda Navoiy kabi ilmlilar ham o'z ulushlarini qo'shishgan. Olimlar hadislarni nasrda tushuntirishga harakat qilsa, shoirlar nazmda yozilgan asarlari orqali hadislarni yetkazdi. Shu asnoda adabiyotda "Arba'in" janri dunyoga keldi.

"Arba'a" – arab tilida "qirq" degan ma'no bersa-da, adabiyotshunoslikda Rasululloh s.a.v. ning qirqta hadisini nazmda ta'riflashga aytiladi.

Sharq adabiyotshunosligida she'riy uslubda eng avval arbain yozgan shoir hijriy II asrlarda yashagan Abdulloh ibn Muborak ekanligi aytiladi. Turk olimi Mehmet Emro "adabiyotshunoslikda arba'in yozgan jami 100 ga yaqin shoirlarning nomi ma'lum ekanligi haqida yozadi" [2,10].

Islom dini g'oyalarini insonlarga yetkazish va targ'ib etishda Arbain janrini yanada rivojlantirgan buyuk shoirlardan biri sifatida hazrat Navoiyni e'tirof etishimiz mumkin. Mutafakkir o'z asarlari orqali jamiyat a'zolarini insofga, adolatga chorlovchi 40 hadisni she'riy uslubda bitish bilan Allohning roziligini topish va payg'ambarimizning shafloatiga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Navoiy shu orqali turkiy xalqlar adabiyotida arba'in janrining yaralishiga beqiyos ulush qo'shdi. Ma'lumki yaratilgan har qanday ijod mahsuli ma'naviy-axloqiy normalar bilan uyg'unlashgan holda jamiyat a'zolariga taqdim etilsa, uning ta'sir

kuchi ikki hissa yuqori bo'ladi. Jumladan, Navoiy shunday yozadi:

"Forsiydonlar aylabon idrok,  
Oriy erdi bu naf'din atrok.  
Istadimki bu xalq ham bori,  
Bo'lmagaylar bu naf'din oriy" [3].

Aytish joizki, dinning asl manbasiga murojaat qilishga va uni o'rganishga jamiyatning har bir a'zosining bilimi kamlik qilishi mumkin, lekin she'r, nazm aholining har qanday qatlami uchun tushunarli va tahlil qilishga oson hisoblanadi. Buni chuqur anglab yetgan Hazrat Navoiy "Arba'in" orqali islom dini g'oyalarini va talablarini oddiy xalq tilida turli ijtimoiy qatlam vakillariga jamiyatdagi axloq normalari bilan uyg'un holda yetkazishni maqsad qiladi. Masalan, payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v.)dan bizga yetgan "Lə yu'minu ahadukum xatta yuhibbu la ahihi mə yuhibbu li nafsihi" (Kimki o'ziga ravo ko'rmaguncha mo'min bo'la olmas) hadisini shoir nazmda shunday ta'riflaydi:

"Mu'min ermastur, ulki iymondin,  
Ro'zg'orida yuz safo ko'rgay,  
Toki qardoshig'a ravo ko'rmas,  
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay" [3].

Navoiyning fikricha "inson, avvalo, o'zidagi yaxshilikni, yoki o'zida bor narsalarni qarindoshlariga ulashmasa, har qanday manfaatdorlikni o'zi uchun deb bilsa, bu iymondan emas va bunday kishi mo'minlar safiga kirmaydi, degan fikrni ilgari surgan. Mazkur baytdagi safo – xursandchilik, shodlik; yaxshilik" ma'nosida qo'llangan.

Ma'lumki, "shukur tushunchasi Islom dinining eng muhim va har bir musulmon amal qilishi lozim bo'lgan amallaridan hisoblanadi. Zotan, Qur'oni Karimda keltirilishicha, "Ey, imon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo'lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz!" (Baqara surasi, 172-oyat)". "Man lam yashkurinnasa lam yashkurillaha" (Kim odamlarga rahmat aytmasa, shukr qilmasa, Allohga shukr qilmaydi) degan hadisning mazmunini Navoiy she'riy tarzda quyidagicha izohlaydi:

"Ulki Xoliqq'a shukr der avval,  
Shokir o'lmoq kerak xaloyiqdin,  
Kimki maxluq shukrini demagay,  
Demagay dog'i shukr Xoliqqdin".

Ushbu misralar orqali mutafakkir insonlarni shukr qilishga chorlaydi.

Ta'kidlash joizki, Navoiy 1481-yilda ustozi Abdurahmon Jomiy tomonidan fors tilida yozilgan 40 hadis to'plamini turkiy tilda nazmda yaratdi. Bu, albatta, turkiy xalqlar adabiyotida juda katta ahamiyatga ega ekanligini aytishimiz kerak. Chunki 40 hadis to'plamini yaratishda Navoiyning zullisonayn shoir ekanligi bilan bir qatorda mohir tarjimon ham ekanligini bilib olamiz.

“Arba'in” muqqaddima (46 misra), 40 ta hikmatli qit'a (160 misra) va xotima (10 misra)dan iborat. Qit'alar 40 ta qadimiy arabiy hadis (hikmat) mazmunidan kelib chiqib yozilgan. Shu sababli “Arba'in”ning hamma nusxalarida har bir qit'a ustiga mazmunidan foydalanilgan hadis yozib qo'yilgan. Bunday asarlar oddiy xalq vakillari hadislar mazmunini oson tushunishi va xotirasida uzoq saqlab qolishi uchun xizmat qilgan. Navoiy zamonida ham butun ulus, xususan, oddiy xalq ommasi arab tilini bilmagan va bu tilda yozilgan manbalarni tushunmagan.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xulosa qilib aytganda, Mutafakkir ilhomlangan ilk manbalar – bu Qur'oni Karim va Hadisi sharif bo'lgan. Zero har bir inson umri davomida qirq hadisni bilishi uning irfon sari yuksaltiradigan omil bo'lar ekan, bu narsani biz Navoiy kamolotida kuzatishimiz mumkin.

Navoiy ijodining gullab-yashnashida ustozi, ham do'sti Abdurahmon Jomiy va mutafakkir Fariduddin Attor asarlari nazariy-metodologik

manba vazifasini o'tagan. Faylasufning umri o'tib, barcha hayotiy xulosalari asosida yuzaga kelgan ma'naviy-axloqiy fikrlariga doir to'xtab o'tilishi bejiz emaski, hayotning mohiyatini anglashda va insonning ijtimoiy-axloqiy mavqeyini belgilsh birinchi darajali birlikdir.

Alisher Navoiy aslida hadislar ustida tadqiqot olib boradigan muhaddis bo'lmagan, boshqacha qilib aytganda, bu soha u kishining mutaxassisligi emas. Qolaversa, u kishi yashagan payt islom olamida hadis ilmidan uzoqlashish boshlangan davrga to'g'ri keladi. Ushbu sharoitda mana shunchalik ishonchli hadislarini jamlashning o'zi hazrat Navoiyning hadis ilmi borasida qanchalik yuqori darajada ekanlarini ko'rsatadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Fozilov I. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent. “Niso poligraf”. 2013.
2. Mehmet Emre. Kirk Mevzuda Kırk Hadis. Istanbul: 1344, s.s. 4-7. “Hadis-i Kutsiler”, Erdem, Hasan Husnu. – Toshkent: Cholpan, 1994.
3. Арбаѣин. (Алишер Навоий назмда ривоят қилган ҳадислар) нашрга тайёрланган: М. Ҳақимжон. Тошкент: “Меҳнат” нашриѣти, 1991-йил.
4. Kurbanbayeva, M. (2024). O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to'g'risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.

